“SMART patrullar bo’yicha tajriba almashishga doir mintaqaviy uchrashuv” mavzusida milliy seminar o’tkazildi

“SMART patrullar bo’yicha tajriba almashishga doir mintaqaviy uchrashuv” mavzusida milliy seminar o’tkazildi. Seminar “Markaziy Osiyoda yovvoyi tabiatdagi jinoyatlarga qarshi kurashish salohiyatini oshirish va ularga ko’maklashish” xalqaro loyihasi doirasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ko’plab tadbirlarning birinchi tadbiri hisoblanadi.

Ushbu loyiha Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan CITES konvensiyasi bo’yicha qabul qilingan me’yor va majburiyatlarni amalga oshirishga ko’maklashishga qaratilgan. Loyiha “Fauna & Flora International” xalqaro ekologik tashkiloti, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti, O’zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo’mitasi va “Ekomaktab” ekologik resurs markazi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda.









Loyiha Markaziy Osiyoning asosiy muhim nuqtalari va savdo yo’llarida yovvoyi tabiatning noqonuniy savdosiga qarshi kurashish uchun huquq-tartibot idoralarining salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan bo’lib, yetarlicha bilimga ega, malakali huquqni muhofaza qilish organlari va agentlik xodimlari ushbu muammoni hal qilishda katta iroda ko’rsatishiga yo’naltirilgan. Shu bilan birga, loyiha yovvoyi hayvonlarning noqonuniy savdosining ham biologik xilma-xillik, ham mintaqaviy barqarorlik uchun salbiy oqibatlarini bartaraf etish va yumshatishga qaratilgan.

Mazkur seminarda SMART patrullarini maqsadli yo’lga qo’yish bo’yicha respublika va mintaqaviy darajada ma’lumotlar almashinuvining amaldagi tartib qoidalar muhokama qilindi. Har bir idoraning jinoyatlarga qarshi kurashish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari ko’rib chiqildi.